

“SAVOD O’RGATISHNI TO’G’RI TASHKIL ETISH UCHUN BOLALARNING NUTQIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISH”

Matyoqubova Fotima Urinbayevna

Urganch Davlat Universiteti Pedagogika fakulteti

Boshlang’ich ta’lim yo’nalishi 3-bosqich

talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7749706>

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarni ta’lim tarbiya olishini savod o’rgatish jarayonlarini to’g’ri tashkil qilish bolalarni nutqiy madaniyatini shakillantirish, ilm olishga bo’lgan qiziqishini yuksaltirish haqida so’z boradi.

Kalitso’zlar: Yozuv ko’nikmasi, fikr bayon qilish, bog’lanishli nutq, bog’lanishli nutq.

Savod o’rgatishni to’g’ri tashkil etish uchun bolalarning nutqiy tayyorgarligini maxsus o’rganish talab etiladi. Oldin bolalami maxsus o’rganish avgust oyida, hatto undan oldin — bahordan boshlangan. Bunda 1-sinfga keladigan o’quvchining oilasiga yoki bolalar bog’chasiga borilgan, suhbat o’tkazilgan, bolalarning umumiy bilim saviyasi aniqlangan. Hozir 1-sinfga qabul qilinadigan bolalar savod o’rgatishga maxsus tayyorlanayptilar. Ular uchun bir-ikki, ba’zi joylarda uch-to’rt oylik tayyorlov sinflari tashkil qilingan. Tayyorlov mashg’ulotlarda bolalar tovush-harf bilan tanishtirilyapti, elementer tarzda yozuvga ham o’rgatilyapti. Metodistlar tayyorlov sinflar uchun aniq talablar, metodik tavsiyalar ishlab chiqishmoqda. Tayyorlov sinflarning ta’lim mazmuni va tashkil etish muddati bir xil bo’lmasa-da, lekin bu davrda bolalarning nutqiy tayyorgarligini o’rganish uchun quyidagilarni aniqlash tavsiya etiladi: 1. O’qish ko’nikmasini aniqlash. a) so’zni sidirg’a o’qiydi; b) bo’g’inlab o’qiydi; d) harflab o’qiydi (noto’g’ri o’qish); e) anchagina harflarni biladi, lekin o’qishni bilmaydi; f) ayrim harflarni taniydi. 2. Yozuv ko’nikmasi. a) hamma harfni yozishni biladi, so’z yozadi (bosma yoki yozma); b) ayrim harflarnigina yozishni biladi (bosma yoki yozma); d) yozishni umuman bilmaydi. 3. Tovushni tahlil qilishga tayyorgarligi. a) so’zni bo’g’inlarga boladi; b) so’z yoki bo’g’indagi tovushni ajratadi; d) hamma tovushni to’g’ri talaffuz qiladi; e) ayrim tovushlarni noto’g’ri talaffuz qiladi (qaysi tovushlar ckani hisobga olinadi); f) nutqining baland yoki pastligi, diksiyasiga e’tibor qaratiladi. 4. Og’zaki bog’lanishli nutqi. She’mi yoddan o’qish. a) 3 ta yoki undan ortiq she’rni biladi, uni zavqlanib aytadi; b) 1—2 ta she’rni biladi, aytishga uyaladi; d) birorta she’rni yoddan o’qishni bilmaydi. 5. Og’zaki bog’lanishli nutqi. Ertak aytish. a) bir yoki bir nechta ertakni biladi va aytib bera oladi; b) ertakni biladi va uni aytishga harakat qiladi, lekin ayta olmaydi; d) ertak aytishni bilmaydi, o’rganishga ham harakat qilmaydi. 6. Og’zaki bog’lanishli nutqi. Fikr bayon qilish („Rasmda nimalar ko’rayotganingni aytib ber“). a) 20 so’zdan ortiq bog’lanishli hikoya, bir necha gap tuza oladi; b) 10 tadan 20 tagacha so’z, bir necha gap tuza oladi; d) 10 tagacha so’z bilan bog’lanishli nutq tarzida javob qaytara oladi; e) 3—4 so’z bilan qisqa javob bera oladi. Shuningdek, bu jarayonda bola nutqining sintaktik qurilishi ham, foydalanadigan so’zlar doirasi ham o’rganiladi, to’plangan materiallar ikki variantda yoziladi: a) har bir o’quvchi haqida alohida ma’lumot (bu bolaga yakka yoki differensial yondashish uchun kerak bo’ladi); b) sinf o’quvchilari uchun umumiy ma’lumot (bu ma’lumotdan darsda sinf o’quvchilari uchun umumiy ishlar metodikasini tanlashda foydalaniladi). Ma’lumki, o’quvchilar 1-sinfga har xil tayyorgarlik bilan keladi. O’quv materiallari 1-sinf o’quvchilari saviyasiga mos, izchil ravishda beriladi. Shunga qaramay, har xil tayyorgarlik bilan

kelgan o'quvchilarning o'zlashtirishlari turlicha bo'ladi. Bu savod o'rgatish jarayonida o'quvchilarga differensial va individual yondashishni taqozo etadi. Bunday yondashish ta'limning barcha bosqichlarida ham yaxshi natija beradi. Differensial yondashishda o'quvchilar guruhlariga bo'linadi, har bir guruhning saviyasiga va imkoniyatiga mos topshiriqlar beriladi. Sinf o'quvchilari 3 guruhga bo'linishi mumkin. Topshiriqlar ham 3 variantda ishlab chiqiladi. O'qituvchi sinfda frontal ishlash jarayonida 3 guruhdagi o'quvchilar bilan parallel ish olib boradi. 3 guruh uchun ham o'quv materiali „Alifbe“ hisoblanadi, unga qo'shimcha tarzda tarqatma materiallardan, jadvallardan, mustaqil ishlardan foydalanish mumkin. Alifbedagi o'quv materiali yoki o'qilayotgan matnning qiyin o'rni oldin tayyorgarligi puxta o'quvchiga, so'ng bo'sh o'quvchiga o'qitiladi. Ba'zi o'quvchilar bilan darsdan tashqari vaqtda yakka tartibda ishlar olib borishga ham to'g'ri keladi. Og'zaki nutq madaniyatini egallash, unga xos xususiyatlarni bilish; o'quvshidan gap va nutqni grammatik, orfografik, stilistik jihatdan adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda tuzishga o'rgatish. og'zaki nutqni rivojlantirish ushuncha o'quvchi lug'at boyligini izchil oshirib borish, gapning sintaktik tuzilishiga oid bilimlarni amaliy jihatdan egallash, nutq birliklari o'rtasidagi mantiqiy uyg'unlikni ta'minlashga oid malakalarni rivojlantirish, yangi harf – tovushga bog'lab tavsiya etilgan so'zlar ma'nosini o'quvchiga to'liq anglashiga erishish, rasm asosida o'zaro bog'langan kichik xikoyachalar tuzishga o'rgatish. O'quvshining bog'lanishli nutqini o'stirishga oid ta'limiy ishlarni amalga oshirish. Lug'at ustida ishlash. O'quvchi nutqini boyitish, ular nutqida kam qo'llaniladigan so'zlarni alohida yozdirib borish, dars jarayonida lug'at daftaridagi so'zlarning ishlatilishiga e'tibor berish. «O'zbekiston – Vatanim manim» bo'limida bolalarga barsha quvonch – shodliklar baxsh etuvshi ona maskanimiz – O'zbekiston ekani haqida dastlabki tushinchalar beriladi. Tanlangan asarlar o'quvchida ona vatan oldidagi burch va ma'suliyatni anglashlarini ta'minlaydi. Vatanga muxabbat xissini tarbiyalaydi. Biz – buyuklar avlodi. (11 soat) «Biz – buyuklar avlodi» bo'limida halqimiz ichidan etishib chiqqan ulug'allomalar hayotiga bag'ishlangan asarlar misolida milliy qadriyatlarimiz yuzasidan tushuncha beriladi. O'quvchi xotirasiz kelajakning bo'lmasligi haqida elementar tasavvurga ega bo'ladi. Ko'klam – yashnaydiolam. (9 soat) «Ko'klam – yashnaydi olam» bo'limida fasllar kelinshagi, yashash – yasharish faslining o'ziga xos xususiyatlari, inson hayoti va butun tabiatga ta'siri haqida hikoya qilingan asarlar o'rinolgan. Ilm – aql shirog'i. (9 soat) «Ilm – aql shirog'i» bo'limiga kiritilgan badiiy asarlarni o'qish bolaga kitobning inson hayotidagi axamiyati, ilm olish aqliy tafakkur, ma'naviy kamolot taraqqiyotiga ta'sir etishi haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Halq – o'giti baxt kaliti. (9 soat) «Xalq – o'giti baxt kaliti» bulimiga bola qalbiga ona allasi bilan kirib kelganog'zaki ijod namunalari kiritilgan bo'lib, ezgulik, to'g'ri suzlik, sofdillik, nafosat, do'stlik, o'rtoqlik, axllik haqida tasavvur qiladi. odob – insonga husn. «Odob – insonga husn» bo'limiga kiritilgan asarlar faxm farosat, xayo va odoblilik, qanoat kabilar insonning ma'naviy – axloqiy qiyofasini belgilovchi asosiyomillar ekani yuzasidan ilk tushunshalar berishga mo'ljallangan. Mehnatning – tagi rohat. (10 soat) «Mehnatning – tagi rohat» bo'limida mehnat tufayli inson baxtga erishishi, ona erning insonlar mehnati tufayli boylik manbaiga aylanishi haqidagi tushinchalari tarkib toptiriladi. Tovushlar va harflar. Unli tovushlar va harflar; a va o i va u, o va u unli harflarning talaffuzi va yozilishi. Unlilarning bo'g'in hosil qilishi. Undosh tovushlar va ularni ifodalovshi harflar. Ayrim undosh tovushlarning talaffuzi va yozilishi (d-t, b-p); talaffuzda tushib qoladigan undoshlar. Harf birikmalari: sh,sh,ng. Alifbo: Harflarning nomi. Harflarning bosh va kichik shakllari.

Soʻzlarni alifbo tartibida xizmat qilishi. Tutiq belgisi (,) uning ishlata olishini, soʻzdagi vazifasi, oʻzidan oldingi unlining shoʻzik aytilishiga, oldingi boʻgʻinni keyingi boʻgʻindan ajrati b talaffuz qilinishiga xizmat qilishi. Boʻgʻin. Soʻzlarni boʻgʻinga boʻlish. Boʻgʻin koʻchirilishi, ketma – ket kelgan undoshli soʻzlarning bir yoʻldan keyingi yoʻlga koʻchirilishi. Harf birikmasi (sh,sh,ng,) qatnashgan soʻzlarning bir yoʻldan ikkinchi yoʻlga koʻchirilishi. Tutiq belgisi soʻzlarning bir yoʻldan ikkinchi yoʻlga koʻchirilishi. Shaxs va narsalar nomini bildirgan soʻzlar, ularning kim?, nima?, kimlar?, nimalar? Soʻroqlariga javob boʻlishi, ismlarning bosh harf bilan yozilishi, hayvonlarga atab qoʻyilgan nomlarning bosh harf bilan yozilishi, joy nomlarining bosh harf bilan yozilishi. Harakatni bildirgan soʻzlar, nima qildi? nima qilyapti? nima qiladi? Soroqlariga javob boʻlishi. Belgini bildirgan soʻzlar, ularning qanday? qanaqa? Savollariga javob boʻlishi. Sanoqni bildirgan soʻzlar. Ular nechta?, nechanshi?, necha?, qancha? Soʻroqlariga javob boʻlishi. nechanshi? soʻrogʻiga javob boʻlgan soʻzlarning yozilishi. Darslarda berilgan lugʻatchadan foydalanish koʻnikmasini shakllantirish. Nutq va gap (12 soat) Nutq. Nutqning ogʻzaki va yozma shakllari. Matn. Matnning gaplardan tuzilishi. Gap. Gapning kim yoki nima haqida aytilganini bildirgan soʻzni aniqlash. Gapning bosh harf bilan yozilishi. Gapning oxiriga nuqta, soroq, undov belgilarining quyilishi. Gapning tugal fikr bildirishi va shunga xos ohang bilan aytilishi. Rasmlarga qarab gap tuzish va yozish. Savol – javob gaplar. Savol – javob tuzilishidagi matnlarning yozilishi. Nutq odobi. Sinf dan tashqari oʻqish yuzasidan koʻnikma va malakalar yil davomida oʻtilganlarni takrorlash (5 soat). Husnixat yozuvga oid malakalarni; yozuv jarayonida partada toʻgʻri oʻtirish, daftarni 65 qiyalikda qoʻyish, rushkani toʻgʻri ushlab malakalarini mustaxkamlash. Yozuv shiziqclarini farqlash, harflarning qiyaligi, ulanishi hamda soʻzlar orasini bir xil tenglikda shamalash kabi shiroyli yozuv talablarini mashq qilish malakalarini shakllantirish. Kichik va bosh harflarni savod oʻrgatish jarayonidagi kabi tartibda yozishni mashq qilish.

Alifbe va alifbedan soʻngi davr mashgʻuloti.

1. Alifbe davri bosqichlari.
2. Alifbedan soʻngi davr.
3. Savod oʻrgatishda individual va differentsial yondashish.

Maʼlumki alifbe davri (15 hafta), uzoq davom etadigan maʼsuliya tli jarayon hisoblanadi. Bu davrda bolalar oʻzbek tilidagi tovushlarni bilib oladilar, hamma harf va yozishlarni oʻzlashtiradilar. Bu davrda oʻzbek tilidagi tovush va harflar alfavit sistemasida emas balki bolalarning tovush va harflarni oʻzlashtirishdagi oson va qiyinligiga qarab 3 bosqichda oʻrgatiladi. Birinchi bosqich alifbe davrining bu bosqichida oʻzlashtirish bir muncha engilroq boʻlgan. O, T, A, N, I, G, M, U, unlilari D, N, K, O, E, V, U, R, D, S undoshlari oʻrgatiladi. Bu bosqichning vazifalari soʻz va boʻgʻinni tovush tomonidan analiz: soʻzdan boʻgʻin boshida, oʻrtasida, oxirida kelgan tovushni ajratish, tovushning oʻrnini aniqlash tovushni aniq talaffuz qilish nutq organlari yordamida nutq tovushlarini hosil qilish, fonetik eshitishni oʻstirish ustida ishlash, unli tovushlarni ajratish, boʻgʻinni oʻqish unli tovushni moʻljallash. Boʻgʻinlab oʻqish asosini shakllantirish ikki harfli ochiq boʻgʻinni (na, lo, la, li, no) kabi, ikki harfli yopiq boʻgʻinni (och, ol, in) kabi, 3 harfli yopiq boʻgʻinni (non, limon) kabi oʻqishga oʻrgatish. Alifbe davrining birinchi bosqichida (o-na, a-na, ush-la, ish-la) kabi undoshni

saqlagan holda unlini almashtirib, lo-la, bo-la kabi unlilar saqlangan holda undoshni almashtirib, bilim, bi-lol, bi-lan, bi-no, o-lim, o-dil, o-mon kabi birinshi bo'g'inni saqlagan holda yangi bo'g'in qo'shib, shuningdek, na, no, ni, nu; la, lo, li, lu; ma, mo, mi, mu; ba, bo, bi, bu; ka, ko, ki, ku; ta, to, ti, tu; da, do, di, du; sa, so, si, su kabi bir xil undoshga o'rganilgan unlini qo'shib bo'g'in tuzib o'qishdan keng foydalaniladi. Bolalar bunday o'qish bilan tovushning grafik belgisi bo'lgan harfnigina emas, balki bo'g'inni, so'zni ham yaxlitligicha yodda saqlaydilar. Bu bosqichda bolalar uqiydigan so'zlar soni ko'p bo'lmaganligi ushuni ular o'qiganlarini yodlab oladilar. Bunday yodlashning oldini olish ushuni o'qituvchi harf kassasidan, sirli metoddan harf kartonidan foydalanib bo'g'in, so'z tuzib o'qitishni mashq qilishi zarur. O'qish ushuni bu kabi qo'shimsha materiallar qanshalik va o'rinli qo'llansa, o'qish shunshalik ongli qiziqarli bo'ladi, o'qish malakasi shunchalik foydali shakllanadi. Alifbe davrining birinchi bosqichida bolalarni o'qitayotgan qatorni kuzatib borishga, shuningdek, suzni o'qiganda harflar tartibini, ustinchada berilgan so'zlasharni tartibini yo'kotmaslikka o'rgatish muhimdir. Buning ushuni savod o'rgatishning dastlabki davrida xat cho'p va ko'rsatgichdan foydalaniladi. O'quvchilardan o'rtog'i yo'l qo'ygan xatoni to'g'irlashni talab etish orqali ham ulardan uqilayotgan qatorni diqqat bilan kuzatish malakasi hosil qilinadi. O'quvchilar bunday vazifani astoydil bajaradilar. Alifbe davrining boshlanishidayoq o'qishning to'liq ongli bo'lishi juda ham muhimdir. O'qilgan tekstni o'quvchilar tushungan tushinmagshanini savollar yordamida shuningdek suhbat orqali ham tekshiriladi. Mumkin bo'lgan o'rinda «problemali vaziyat» ni hosil qilish ma'qul. Bunday vaziyatni hosil qilishda alifbedan, harf terish kartonidan yoki sirli matodan, javobini topish talab etiladigina topishmoqdan foydalaniladi, yoki taxminiy suhbat o'tkaziladi. Buning ushuni «qaysi qush yoqimli sayyoraydi?» o'qib bilamiz! Kabi savoltopshiriqdan foydalaniladi. (Bolalar harf terish kartonidan «bulbul» so'zini o'qiydilar) Bunday vaziyat o'qishning ongli bo'lishini ta'minlaydi, o'quvchilar tushunib o'qiydilar, o'qishga qiziqadilar. Analitik o'qishning birinchi bosqichida ifodali o'qish mumkin emas, shunki bolalar xali tugallangan intonatsiyaning, so'roq intonatsiyasini ifodalay olmaydilar, ko'pincha orfoepik jihatdan ham to'g'ri o'qiy olmaydilar. Shuning uchun bunday analitik o'qish bosqichida takroriy, yaxlid, shuningdek orfoepik o'qish tavsiya etiladi. Alifbening ikkinchi bosqichi. Bu bosqichga taxminan 50 kun ajratilib k, t, d, s, r, i, e, e, sh, B, Z, G, S, SH, P kabi tovush va harflar o'rgatiladi. Tovush va harfning analiz va sintezida: birinchi bosqichidagilarga nisbatan artikulyatsiyasi qiyin, k, r, v kabi tovushlar, tong, so'ng, rang, singil singari so'zlarda keladigan ikki harf bilan ifodalanadigan jarangli ng (n) tovushi o'rganiladi, shuning ushuni tovushlarning artikulyatsiyasi ustidagi ishlar qiyinlashadi. O'rganiladigan tovushlarning xususiyatiga qarab, bu bosqichda bo'g'inlab o'qish vazifasi murakkablashadi: undoshdan unlidan undoshdan (do'st, rasm, yo'lbars), undosh, unlidan (stol, stul trak-tor) iborat yangi bo'g'inlar o'qitiladi. Bu bosqichda o'qishda ham ongli o'qish ustida ishlash davom ettiriladi, differentsial yondashish amalga oshiriladi, yozuv malakasi oshiriladi. Alifbe davrining ushinchi bosqichiga taxminan 21 kun ajratiladi. Bu davrda o'zlashtirilishi yanada murakkabroq tovush va harflar e, ya, yu, x, k, f, b, j, ts o'rgatiladi. Uchinchi bosqichda o'zbek tilidagi qiyin tovush va harflar (bir harf bilan ifodalanadigan juda, jo'ra kabi so'zlardagi portlovshi j tovushi va jurnal, jirafa kabi so'zlardagi sirg'aluvshi – tovush yo, ya, yu harflari ayrish (') va yushatish () belgilari o'rganiladi. qiyinligi shundan iboratki, bolalarga bunday tovush va harflar haqidagi bilim nazariyasi amaliy ravishda tushuntiriladi. Alifbe davrining ushinchi bosqichi o'quvchilar quyidagi muhim ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur: 1). Hamma tovushlarni so'zdan tashqari

ham, soʻz ishida ham erkin va toʻgʻri talaffuz qilish. 2). Soʻzning tovush tarkibini undagi tovush tarkibini, undagi tovushlarning izshil tarkibini aniqlash, soʻzni boʻgʻinga ajratish, urgʻuli boʻgʻinni koʻrsatish. 3). Kesma harflardan soʻz tuzish va uni koʻrsatish. 4). Jarangli va jarangsiz undosh tovushlarni farqlash. 5). Hamma harflarni bilish. 6). Boʻgʻinlab harflab emas oʻqish, yaʼni oʻquvshilar maʼnosini tushunadigan ikki, ush, toʻrt boʻgʻinli soʻzlarni boʻgʻinlab sidirgasiga oʻqishni bilishi zarur. 7). Soʻzni va tekstni qayta oʻqiganda asosiy orfoepik normani saqlash, oddiy xolatlardan pauza qilish, logik urgʻuni qoʻya bilish, oddiy intonatsiyaga rioya qilish. 8). Oʻqilgan tekstning mazmuniga tushunish tekst yuzasidan berilgan savolarga javob berish soddalashtirib qayta hikoyalash. Alifbedan soʻngi davr. Bu davrning asosiy vazifasi bolaning «Oʻqish kitobi» va «Oʻzbek tili» darsligiga oʻqishga tayyorlash hisoblanadi. Aniqrogʻi vazifa boʻgʻinlar analitik oʻqish malakasini takomillashtirish. (Agar imkoniyat boʻlsa, soʻzni yaxlit sintetik oʻqish): oʻquvchilarning barobarlash (boʻsh oʻzlashtiruvchilarning bilim va koʻnikmalaridagi kamchiliklarini toʻldirish) mustaqil oʻqish va yozishni mashq qilish orqali katta xajmdagi bogʻlanishli tekstlarni – hikoya, sheʼrlarni oʻqitishni mashq qilish, mazmunini taxlil qilish. Yozuvda harflarni toʻgʻri qoʻshish malakasini mustaxkamlash, soʻzni va kichik gapni yozish: oʻquvchilar nutqini oʻstirish ustida ishlashni davom ettirish, yaʼni oʻqilgan tekstni hikoya qilish, suhbat oʻtkazish, hikoya tuzishdan iborat. Bu bosqich (davr)da oʻqish darslarida tanlab oʻqish, ifodali oʻqish, suxbat usullari keng qoʻllaniladi. Alifbedan soʻnggi davrda sekin asta ishda oʻqish oʻrgatilib boriladi. Savod oʻrgatish darslarida oʻquvchilarga individual va differentsial yondashishning ahamiyati juda kattadir. Oʻqituvchi bolaning xat savodga oʻrganishida sinfda va sinfdan tashqari vaqtda har bir bola bilan alohida ishlashga toʻgʻri keladi. Parta qator oralab har bir bolaning oʻqishini va yozuvini kuzatib borishi zarur. Hozirgi oʻzbek unililar sistemasi : a, o, oʻ, u, i, e. Savod oʻrgatishda tovush – harf bilan tanishtirish unililardan boshlanadi. e- harfi soʻz va boʻgʻin boshida oʻrta keng lablanmagan unli oʻrnida v a undoshdan keyin yoziladi. Savod oʻrgatishda oldin soʻz boshida keladigan –e (ye) soʻng undoshdan keyin keladigan –e oʻrgatilati. -o harfi oʻzbekcha, umurtqiy soʻzlarda quyi keng, lablangan -o tovushini ifodalaydi. ruscha internasinal soʻzlarda urgʻusiz boʻgʻinda –a tarzida (kaxoz) -oʻ tovushi kabi (toʻnna)qisqa –i tarzida (rektir) talaffuz qilinadi. Shuning uchun bu unlili soʻzlar savod oʻrgatish davridan soʻng oʻquv jarayoniga kiritiladi. Oʻzbek tilida 24 undosh tovush bor. Shulardan 3 tasi xarf birikmasi, 24 undosh tovush 23 undosh xarf bilan b elgilanadi. Undoshlarni oʻrgatishda xam muayyan tartibga, talabga asoslaniladi. Alifbo davri sonor- ovozli (ovozdor) tovushlarni oʻrgatishdan boshlanadi. Lekin -ng sonor undoshi n va g undoshi tovush xarfi bilan tanishtirilgach oʻrgatiladi. Harf birikmalarini oʻrgatishdagi qiyinchilik xisobga olingan xolda ular alifbe davrining oxirroqʻida oʻrganiladi. J xarfi ikki tovushni ifodalaydi, shuni xisobga olib, unga aloxida darslar ajra tiladi. Savod oʻrgatish jarayonidayok harfning 4 xil varianta (bosma, yozma, bosh va kichik)ning ishlatilishi oʻrgatiladi. Oʻquvchilarni oʻqishga oʻrgatish boʻgʻin asosida olib boriladi. Oʻqishning dastlabki boskichida orfografiya oʻqishdan foydalanilsa sekin- asta orfoepik oʻqitish koʻnikmalari shakllantiriladi. Boʻgʻinlab oʻqishga oʻrgatish uchun soʻzni boʻgʻinga boʻlish, boʻgʻin hosil qiluvchi tovushni aniqlash, ochiq –yopiq boʻgʻinlarni farqlashga oʻrgatish muhim sanaladi. Maʼlumki savod oʻrgatish jarayoni oʻquvchilarning nafaqat xat savodlarini chiqarish, Kelgusida ularning feʼl –atvori, koʻplab koʻnikmalar va odatlarning shakllanishida ilk bosqich sanaladi. Shunday ekan biz, oʻquvchilarni chiroyli va savodli yozishga oʻrgatish orqali ularda iroda, tartiblilik, ozodalik kabi sifatlarni shakllantirishga erishishimiz

mumkin. O'quvchilar savodli va to'g'ri yozish oqali e'tiborli, irodali, tartibli bo'lishga o'rganib boradilar. Bu esa jamiyatimizda shakllanayotgan har bir shaxsga tegishli bo'lgan fazilatlardan biridir. Savod o'rgatish jarayonida ta'limiy diktantlardan foydalanishga bag'ishlangan ushbu bitiruv malakaviy ishda biz ana shu masalani ko'rib chiqdik. Unda asosan o'quvchilarni savodli va husnixat asosida yozishga o'rgatish masalalari, darslarni interaktiv usullar hamda didaktik o'yinlardan foydalanib tashkil etish masalalirga asosiy e'tibor qaratildi. Ilmiy metodik adabiyotlar, tadqiqot jarayonida olingan natijalar tahlili hamda boshlang'ich ta'lim jarayonini kuzatishlar asosida quyidagi xulosa va tavsiyalarni taqdim etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Kichik yoshdagi bolalarga beriladigan til ta'limi va tarbiyasi o'zgacha yo'nalish, o'zgacha usullar bilan boyitib, til sofligi, adabiy til me'yorlarini singdirish kabi zaruriy mashqlar vositasida olib boriladi. Shuningdek, savod o'rgatish jarayonida ham pedagogik texnologiyalarning ilg'or usullariga tayanib ish ko'rmoq joiz hamda bolalar idrok eta oladigan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish va ular qisman maxsus o'quv qo'llanmalar mazmuniga kiritilishi zarur. Boshlang'ich ta'limining samaradorligini oshirish omillaridan biri bolalarning savodli yozish malakalarini tarbiyalashdir. Buni 1-sinfdan boshlanib, yuqori sinflarda ham davom ettirilishi lozim. O'qish ham, yozish ham murakkab nutq faoliyati. U kichik yoshdagi o'quvchidan iroda, aql, hatto jismoniy xarakterni ham talab qiladi. Kichik yoshdagi o'quvchini o'qishga o'rgatishda quyidagilar kuzatiladi:

1. Bola o'qish paytida bitta harfni ko'radi, uni bilish uchun oldingi ko'z oldiga keltirilgan rasmlarni yo boshka harflarni eslaydi, esga tushirgach, uni aytishga oshiqadi, biroq o'qituvchi aytishga yo'l qo'ymaydi, ikkinchi xarfni eslab ko'rguncha birinchisi esdan ko'tariladi, yoki ularni qo'shib butun, bug'indan so'z xosil qilguncha o'qish jarayoni sustlashadi. Ko'pincha bola o'qiyotgan qatorni yo'qotib qo'yadi, xarfni, bo'g'inni, so'zni qayta o'qishga to'g'ri keladi. O'quvchining diqqati kengaygan sari bo'g'in va so'zni butunligicha idrok eta boshlaydi.

3. O'qishni endi o'rganayotgan bola o'qiyotgan matn mazmunini o'zlashtirmaydi, chunki so'zni qanday o'qishga kuch beradi -da, so'z ma'nosiga e'tibor bermaydi. Darslikdagi rasmlar, o'qituvchining savollari, ko'rgazmali qurollar ongli o'qishlarini ta'minlaydi.

4. Tajribasiz kitobxon o'zni birinchi bo'g'iniga yoki rasmga qarab topadi. Bu xato o'qishga olib keladi. Bu xatoning oldini olish uchun so'z bo'g'inlab o'qitiladi, so'zni bunga-tovush tomondan tahlil qilishga, tovush -harf tomondan analiz va sintez qilishga diqqat qaratiladi. O'qishni muvaffaqiyatli egallashlari uchun o'quvchilarning idroki, xotirasi, tafakkurini va nutqini o'stirishga katta e'tibor berish kerak. Savod o'rgatishda fonematik eshitish qobiliyatlarini o'stirish, turi va aniq talaffuz qilishga o'rgatish, tovushni ajratish ko'nikmasini o'stirish muxim sanaladi. Yozuv o'quvchilar ruchkani to'g'ri ushlab, daftarni to'g'ri qo'yish, xarfni yozishda yozuv chiziqlari, ular bo'ylab qo'lni xarakatlantirishni esda saqlash, xarfni xarfga ulashi, qatorga sig'ish-sig'masligini mo'ljallashi lozim. Bular o'quvchini aqliy va jismonan charchatadi, ayniqsa, barmoq va elka muskullari charchaydi, bular darsda ikki-uch marta fizkultura mashqlarini o'tkazishni taqozo etadi.

References:

1. 2-sinfda o'qitish. Tuzuvchi Mavlonova R.A.T., «O'qituvchi», 1977- y.
2. IKromova R. Grammatika, imlo va nutq o'stirishdan tarqatma materiallar. T., «O'qituvchi», 1993 -yil.
3. Ma'qulova B. va boshqalar. Boshlang'ich sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari. T., «O'qituvchi», 1996- yil.
4. Mirzaev I. Dars tahlili. T., «O'qituvchi», 1985- yil.
5. Oripov K., Obidova M. Ifodali o'qish. T., «O'qituvchi», 1982- yil.
6. To'rt yillik boshlang'ich sinflar dasturi. T., «O'qituvchi», 1999- y.
7. Umarova M, Hudoyberganov M. Bayonlar to'plami.T."O'qituvchi",1992-y
8. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodiikasi. T., "O'qituvchi", 1985- yil.
9. Qosimova K., Ubaydullaeva.2-sinfda ona tili darslari.T., "O'qituvchi", 1987-y.
- 10 G'ulomov M. Husnixat metodikasi. T., "O'qituvchi", 1976 -yil.